DOI: https://doi.org/10.37547/supsci-ojp-05-03-73 Pages: 639-644

Oriental Journal of Philology



ORIENTAL JOURNAL OF PHILOLOGY

journal homepage:
http://www.supportscience.uz/index.php/ojp/about



THE MORPHOLOGICAL ANALYSIS OF HAJJ AND UMRAH TERMS

Aygul U. Umurzakova
Doctoral student
Department of Arabic Studies
Tashkent State University of Oriental Studies
Email: aygulumurzakova@gmail.com
Uzbekistan, Tashkent

ABOUT ARTICLE

Key words: Hajj, Umrah, morphological analysis, Arabic linguistics, religious terminology, pilgrimage terms.

Received: 06.03.25
Accepted: 08.03.25
Published: 10.03.25

Abstract: This article analyzes the morphological development and structural-functional characteristics of terms related to “Hajj” and “Umrah” in the Arabic language from ancient times to the modern era. The study examines the morphological changes of these terms and their specific functions in expressing religious rituals. The research results reveal how the words related to Hajj and Umrah have undergone changes over time and space, highlighting their semantic narrowing and usage in religious contexts. Over 100 morphological examples from both ancient and modern studies are provided, with a detailed morphological analysis of the roots and meanings of these terms.

HAJ VA UMRA TERMINLARINING MORFOLOGIK TAHLILI

Aygul U. Umurzakova
Tayanch doktorant
Arabshunoslik oliy maktabi
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti
Email: aygulumurzakova@gmail.com
O’zbekiston, Toshkent

MAQOLA HAQIDA

Kalit so’zlar: haj, umra, morfologik tahlil, arab tilshunosligi, diniy terminologiya, ziyorat terminlari.

Annotatsiya: Ushbu maqolada arab tilida “Haj” va “Umra” bilan bog‘liq terminlarning morfologik rivojlanishi va struktur-funksional xususiyatlari qadimgi

davrdan zamonaviy davrgacha tahlil qilinadi. Maqolada bu terminlarning morfologik oʻzgarishlari va diniy amallarni ifodalashdagi maxsus vazifalari batafsil koʻrib chiqilgan. Tadqiqotlar natijasida, haj va umra amallariga oid soʻzlar zamon va makonga bogʻliq holda qanday oʻzgarishlarga uchragani, ularning semantik torayishlari va diniy ma’nolarda ishlatilishi aniqlandi. Qadimiy va zamonaviy tadqiqotlar asosida 100 dan ortiq morfologik misollar keltirilib, bu terminlarning oʻzagi va ma’nosi morfologik tahlil qilindi.

МОРФОЛОГИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ТЕРМИНОВ ХАДЖА И УМРЫ

Айгул У. Умурзакова
Докторант
Высшая школа арабистики
Ташкентский государственный университет востоковедения
Email: aygulumurzakova@gmail.com
Узбекистан, Ташкент

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: хадж, умра, морфологический анализ, арабское языкознание, религиозная терминология, термины паломничества.

Аннотация: В данной статье анализируется морфологическое развитие и структурно-функциональные особенности терминов, связанных с “Хадж” и “Умра” в арабском языке, начиная с древних времён и до современности. В статье подробно рассматриваются морфологические изменения этих терминов и их специальные функции в выражении религиозных обрядов. В результате исследований было выявлено, как слова, относящиеся к хаджу и умре, изменялись в зависимости от времени и места, их семантическое сужение и использование в религиозных значениях. На основе древних и современных исследований приведено более 100 морфологических примеров, проведён морфологический анализ корней и значений этих терминов.

Kirish. Arab tilida haj va umra terminlari musulmonlar uchun katta ma’naviy ahamiyatga ega. Bu atamalar arab tilining murakkab morfologik tuzilmasiga bogʻliq boʻlib, zamon, makon va amallarni ifodalashda alohida lingvistik vazifaga ega. Oʻtmishdan hozirgi kungacha bu atamalar nafaqat diniy, balki lingvistik jihatdan ham oʻrganib kelinmoqda. Ushbu maqola arab tilida haj va umra terminlarining morfologik tuzilishini, ularning qadimiy va zamonaviy oʻzgarishlarini tahlil qilishga bagʻishlangan boʻlib, ilmiy manbalar asosida yoritiladi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Maqola haj va umra bilan bog'liq terminlarni morfologik tahlil qilish uchun, tadqiqotda quyidagi usullar qo'llangan:

- Tadqiqot materiallari. Turli davrlarda chop etilgan kitoblar va maqolalar, xususan, Al-Jurjaning "Kitab al-Ta'rifat" (1985), Ibn Manzur "Lisan al-Arab" (2000), Sami al-Jabiriy "السياحة في اللغة العربية وتشكيلاتها الصرفية" (Arab tilida turizm va uning morfologiyasi) (2010) va Duncan Black MacDonald "Development of Islamic Religious Terms" (1930) kabi arab lingvistlari va boshqa manbalar asosida materiallar yig'ildi.
- Morfologik tahlil. Terminlarni tasniflash uchun ularning o'zaklari, qo'shimchalar va so'z yasash usullari tahlil qilindi.
- Leksik tadqiqotlar. Har bir termin haj va umra amallari bilan bog'liq holda zamon va makonga taalluqli leksik o'zgarishlari ko'rib chiqildi.

Natijalar. Al-Jurjani o'zining "Kitab al-Ta'rifat" asarida haj va umra atamalarini lingvistik jihatdan tahlil qilgan. U haj (حج) atamasini fa'lun (فَعْلٌ) va umra (عمرة) atamasini fu'latun (فُعْلَةٌ) shaklida kelgan va ularning morfologik xususiyatlarini zamon va makonga bog'lab tahlil qilgan. Masalan, "حج" so'zida "fā'ilun" (fe'l qiluvchi) shaklida haj qilish amalini bajaruvchini ifodalovchi morfema qo'shilgan (Al-Jurjani, 1985, p. 178).

Ibn Manzur o'zining "Lisan al-Arab" lug'atida haj va umra atamalari batafsil yoritilgan. Ibn Manzur haj atamasining morfologik tuzilishini o'rganib, uning turli dialektlarda o'zgarishi va keng qo'llanishini ta'kidlagan. Masalan, "طواف (ṭawāf)" - tavof qilish, "سعي (sa'y)" - Safa va Marva o'rtasidagi harakatni ifodalovchi so'zlarning morfologik tahlilini keltirgan (Ibn Manzur, 2000, p. 192).

Sami al-Jabiriy o'zining "السياحة في اللغة العربية وتشكيلاتها الصرفية" (Arab tilida turizm va uning morfologiyasi) asarida ziyorat turizmi atamalarining morfologik tahlili yetakchi mavzuga aylangan. U haj va umra atamalarining zamon va makonga bog'liq morfologik o'zgarishlarini ko'rsatadi. Masalan, "الإحرام (iḥrām)" so'zi arab tilida maqsadli amal va holatni anglatadi. U avvallari "haramga kirish" ma'nosida ishlatilgan bo'lsa, hozirgi kunda u hajning bir bosqichi sifatida keng qo'llanilmoqda (Sami al-Jabiriy, 2010, p. 97).

Duncan Black MacDonald uning "Development of Islamic Religious Terms" ishi arab tilidagi diniy atamalarning lingvistik rivojlanishini tushunish uchun muhim bo'lgan. MacDonald, masalan, "المقام (al-maqām)" so'zining morfologik tahlilini keltirib, bu so'zning "maqom", "o'rin" va "ibodat joyi" degan ko'p ma'nolarini lingvistik jihatdan tahlil qiladi (Duncan, 1930, p. 50).

Ushbu tadqiqot haj va umra atamalarining morfologik tuzilishi yoritiladi. Qadimgi davr tadqiqotchilari so'zlarning shakli, o'zagi va ularning diniy amallar bilan bog'liqligini morfologik

jihatdan aniqlashga e’tibor qaratgan bo‘lsa, zamonaviy lingvistlar atamalarning zamon va makon o‘zgarishiga moslashuvini tahlil qilishgan.

Haj va Umra amallari bilan bog‘liq terminlarga misollar:

1. حج (ḥajj): so‘zning o‘zagi ح-ج-ج bo‘lib, bu so‘zning asl ma’nosi “ziyorat qilish” yoki “biror joyga borish” demakdir. Haj so‘zi I bobning masdar shaklida kelib, morfologik jihatdan fa‘lun (فَعْلٌ) vazniga mansub bo‘lib, bu “maxsus ziyorat” ma’nosini bildiradi. Ushbu so‘z o‘z vaqtida ma’lum amal (haj qilish) uchun ma’nosiga torayib, diniy hodisa sifatida maxsus ziyorat amaliga aylangan. Haj so‘zi ko‘plab qadimgi va zamonaviy arab lug‘atlarida bir xil morfologik tuzilishga ega, ammo uning ishlatilish kontekstiga qarab ma’nosi aniqroq ifodalanadi. Masalan, الحج الأكبر (al-ḥaj al-akbar) – “katta haj” iborasida haj so‘zi diniy amal sifatida kuchaytiruvchi sifati bilan keladi (Muhammad M., 2011, p. 9-13).

2. عمرة (ʿumrah): so‘zning o‘zagi ع-م-ر bo‘lib, bu so‘z “ziyorat qilish” va “ziyorat joyini obod qilish” ma’nosini anglatadi. Umra so‘zi morfologik jihatdan faʿlah (فَعْلَة) vazniga mansub bo‘lib, bu “ziyorat qilish amali” ma’nosini bildiradi. Haj va umra amallari o‘rtasidagi asosiy farq umraning haj davridan tashqari va yil davomida istalgan vaqtda amalga oshirilishi bilan bog‘liq. Shu tariqa, umra haj amali bilan o‘xshashliklariga qaramay, boshqa bir amalni bildiradi. عمرة المتمتع (ʿumrah al-mutamattiʿ) iborasi “haj va umra orasida ziyorat” ma’nosini anglatadi, bu so‘zlarning diniy va amaliy xususiyatlarini ifodalaydi.

Zamon va makon bilan bog‘liq terminlarga misollar:

3. إحرام (iḥrām): so‘zning o‘zagi ح-ر-م bo‘lib, “hurmat qilish”, “harom qilish” yoki “muqaddas holatga kiritish” ma’nosini anglatadi. Iḥrām morfologik jihatdan IV bobning masdar shaklida kelgan bo‘lib, haj va umra ziyoratlari boshlanishida maxsus kiyim kiyish va niyat qilish holatini bildiradi. Iḥrām so‘zi morfologik jihatdan ifʿālun (إِفْعَالٌ) vazniga ega bo‘lib, bu holatni amalga oshirish amalini bildiradi. Masalan, نوى الإحرام (nawā al-iḥrām) iborasi “ihram niyati qildi” ma’nosini ifodalaydi, bunda iḥrāmning diniy holati aniq ifodalangan.

4. طواف (ṭawāf): bu so‘z I bob masdari shaklida kelib, atrofda aylanib yurish (tavof qilish) amalini anglatadi. Morfologik jihatdan bu so‘zning ildizi ط-و-ف bo‘lib, faʿāl (فَعالٌ) vaznida, davriy yoki takrorlanadigan harakatni bildirib, haj va umra amallari davomida Ka’ba atrofida aylanib yurishni bildiradi. Masalan, الطواف حول الكعبة (al-ṭawāf ḥawla al-kaʿba) iborasi “Ka’ba atrofida aylanish” ma’nosini anglatadi. Bu amal haj va umra uchun muhim ibodat bo‘lib, doimiy harakatni ifodalaydi.

5. سعي (saʿy): so‘zning o‘zagi س-ع-ي bo‘lib, “yurish” yoki “tez yurish” ma’nosini anglatadi. Saʿy so‘zi haj va umra amallari orasida Safa va Marva tepaliklari orasida yurishni anglatadi. Morfologik jihatdan, bu so‘z I bobning masdar shaklida kelib, fa‘lun (فَعْلٌ) vazniga

ega. Masalan, سعى بين الصفا والمروة (saʿā bayna al-ṣafā wa al-marwa) iborasi “Safa va Marva orasida yurish” ma’nosini bildiradi.

6. مقام (maqām): bu so‘zning o‘zagi ق-و-م bo‘lib, “turish” yoki “joy” ma’nosini anglatadi. Maqām so‘zi ism shaklida kelib, “maqom” yoki “ibodat joyi” ma’nosini ifodalaydi. Masalan, مقام إبراهيم (maqām Ibrāhīm) iborasi “Ibrohim maqomi” deb atalgan joyni bildiradi, bu joy Ka’ba oldida joylashgan va u yerda ibodat qilish odat tusiga kirgan. Bu so‘z joyning barqarorligi va ahamiyatini bildiradi.

7. زمزم (zamzam): so‘zning o‘zagi ز-م-ز-م bo‘lib, takroriy ovoz chiqarish yoki suvning oqishini anglatadi. Zamzam so‘zi ism shaklida kelib, Makka shahridagi muborak quduqni bildiradi. Bu so‘z ikki marta takrorlangan zam harakatidan hosil bo‘lib, morfologik jihatdan kuchaytiruvchi sifatida ishlatiladi. Masalan, ماء زمزم (māʾ zamzam) iborasi “zamzam suvi” ma’nosini anglatadi, bu suvning muborakligi va afzalligini bildiradi.

Amallarga bog‘liq terminlarga misollar:

8. تقصير (taqṣīr): so‘zning o‘zagi ق-ص-ر bo‘lib, “qisqartirish” ma’nosini anglatadi. Taqṣīr morfologik jihatdan II bobning masdari bo‘lib, tafʿīlun (تَفْعِيلٌ) vazniga ega. Bu amal haj yoki umra yakunida sochni qisqartirishni ifodalaydi. Masalan, تقصير الشعر (taqṣīr al-shaʿr) iborasi “sochni qisqartirish” ma’nosini bildiradi.

9. حلق (ḥalq): so‘zning o‘zagi ح-ل-ق bo‘lib, “sochni qirqish” yoki “sochni olish” ma’nosini bildiradi. Ḥalq I bobning masdari morfologik jihatdan faʿlun (فَعْلٌ) vazniga ega bo‘lib, sochni butunlay olish amali haj va umra yakunida amalga oshiriladi. Masalan, حلق رأسه (ḥalqu raʾsihi) iborasi “uning sochini olish” ma’nosini ifodalaydi.

10. رمي (ramy): so‘zning o‘zagi ر-م-ي bo‘lib, “otish” ma’nosini anglatadi. Ramy haj amali davomida shaytonga tosh otish amali bo‘lib, I bobning masdari morfologik vazni faʿlun (فَعْلٌ) bo‘lib, harakatni bildiradi. Masalan, رمى الجمرات (ramy al-jamarāt) iborasi “jamarot toshlarini otish” ma’nosini bildiradi.

Misollar orqali o‘rganilgan terminlar haj va umra amallarining morfologik jihatlarini ko‘rsatadi. Qadimiy davrlarda ḥajj so‘zining umumiy ma’nosi “borish” yoki “ziyorat” sifatida ishlatilgan bo‘lsa, zamonaviy davrda bu so‘z diniy amallar bilan bog‘liq maxsus amal sifatida ishlatila boshlandi. Shuningdek, umra so‘zining ham dastlabki ma’nosi “ziyofat” yoki “ziyorat qilish” bo‘lsa, bugungi kunda bu so‘z diniy amallar orasida ma’lum vaqt va makonga bog‘langan maxsus amal sifatida torayib qolgan.

Xulosa. Haj va umra amallari bilan bog‘liq terminlar qadimiy va zamonaviy davrlarda morfologik jihatdan rivojlanib kelgan va bu terminlar maxsus diniy kontekstda ishlatilib, o‘ziga xos amallarni ifodalaydi. Qadimiy lug‘atlar va grammatik manbalardan tortib zamonaviy tadqiqotlargacha, ushbu terminlar shakllanishida ma’lum zamon va makon bilan bog‘liq

morfologik o‘zgarishlar aniq kuzatilgan. Morfologik o‘zgarishlar ushbu terminlarni diniy amallarda aniqroq ifodalashga yordam beradi.

Ushbu maqola arab tilida haj va umra atamalarining morfologik tuzilishini yoritib, ularning zamon va makon bilan bog‘liq o‘zgarishlarini ko‘rsatadi. Qadimiy va zamonaviy tadqiqotlar haj va umra amallariga taalluqli terminlarning morfologik va lingvistik rivojlanishini yoritib, bu terminlarning arab tili lingvistikasidagi ahamiyatini tasdiqlaydi. Ushbu tadqiqot haj va umra terminologiyasini tushunishda muhim qadam hisoblanadi va kelgusida yanada chuqur tadqiqotlar uchun asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati:

1. Al-Jurjani, A. (1985). Kitab al-Ta’rifat (A Book of Definitions). – Beirut: Du Liban. – 178 p. (in English).
2. Duncan B.M. (1930). Development of Islamic Religious Terms. – Oxford: University Press. –50 p. (in English).
3. Ibn Manzur (2000). Lisan al-Arab 7-8. – Beirut: Dar Sodr. – 192 p. (in Arabic).
4. Sami al-Jabiriy (2010). Al-Siyāhah fī al-Lugat al-‘Arabiyyah va tashkīlātuhā al-Sarfiyyah. (Arab tilida turizm va uning morfologiyasi). – Makkah: University Press. – 97 p. (in Arabic).
5. Muhammad M. (2011). Al-Hajj al-Akbar. – Beirut: Sayda. – 9-13 p. (in Arabic).